



ISLOM MOLİYAVIY INSTRUMENTLAR BOZORI TAHLILI

Adxamjonov Shoxbozbek

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

ORCID: 0009-0000-2015-5518

sh.adxamjonov@tsue.uz

Annotatsiya. Ushbu maqolada islom moliya instrumentlar bozori haqida ma'lumot keltirib o'tilgan bo'lib, ular qaysilar va ularni moliya bozorida tasarruf etilishi va bularning iqtisodiyotda tutgan o'rni ahamiyatliligi bayon qilingan. Jahonda moliyaviy instrumentlarni o'rganish jarayonida jahon tajribasi o'rganilib islom moliyaviy instrumentlar jahon tajribasi keltirilgan.

Kalit so'zlar: islom moliyasi, islom qimmatli qog'ozlar, islom moliyaviy instrumentlari, sukuk, islom moliyaviy fondlari.

АНАЛИЗ РЫНКА ИСЛАМСКИХ ФИНАНСОВЫХ ИНСТРУМЕНТОВ

Адхамжонов Шохбозбек

Ташкентский государственный экономический университет

Аннотация. Эта статья предоставляет информацию о рынке исламских финансовых инструментов, описывая, какие из них доступны на финансовом рынке и их важную роль в экономике. В процессе изучения финансовых инструментов в мире изучен мировой опыт и представлен мировой опыт исламских финансовых инструментов.

Ключевые слова: исламские финансы, исламские ценные бумаги, исламские финансовые инструменты, сукук, исламские финансовые фонды.

ANALYSIS OF THE ISLAMIC FINANCIAL INSTRUMENTS MARKET

Adkhamjanov Shokhbozbek

Tashkent State University of Economics

Abstract. This article provides information about the Islamic financial instruments market, explaining what they are and how they are distributed to the financial market, and their important role in the economy. In the process of studying financial instruments in the world, the world experience of Islamic financial instruments is studied and the world experience of Islamic financial instruments is presented.

Keywords: Islamic finance, Islamic securities, Islamic financial instruments, sukuk, Islamic financial funds.

Kirish.

Bugungi kunda islom moliyasi jahon moliya bozorida muhim o'rinlarga ega. Hozirga kunda juda ko'p mamlakatlar islom moliyasini o'zini moliya tizimiga joriy qilib ulgurdi va bu tizim ko'p javhalarda o'zini oqlab kelmoqda. Islom moliya bozori moliya bozorini ajralmas qisimiga aylanib ulgurgan va moliya bozorini jobadorligini yana oshirmoqda.

Bizning mamlakatimizda islom moliyasini joriy qilish boshlanib ulgiran. Mamlakatimizda islomiy moliyaga o'tish 2018-yildan boshlangan bo'lib O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning shaxsan o'zlari bu yo'nalishga ko'p marotaba urg'u berganlar. Jumladan Prezidentning 2020-yil 29-dekabrda Parlamentga qilgan murojaatnomasida mamlakatimizda islom moliyaviy xizmatlarini joriy etish bo'yicha huquqiy bazani yaratish vaqti-soati kelganligi. Bunga Islom taraqqiyot banki va boshqa xalqaro moliya tashkilotlari ekspertlari jalb etilishligi alohida ta'kidlangan. Islom moliya sanoatining jami aktivi 2023-yil oxirida yuqori o'sish sur'atiga ega bo'lib, 4 trillion dollarni tashkil etdi (IFSB, 2023). Yuqoridagilarni inobatga olgan holda Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasini amalga oshirish jarayonida orttirilgan tajriba va jamoatchilik muhokamasi natijalari asosida ishlab chiqilgan "O'zbekiston – 2030" strategiyasi (Farmon, 2023) tasdiqlangan bo'lib uning ikkinchi yo'nalishi "Barqaror iqtisodiy o'sish orqali daromadi o'rtachadan yuqori bo'lgan davlatlar qatoridan o'rin olish" deb nomlanadi va aynan shu yo'nalish doirasida bir qancha iqtisodiy islohotlarni o'tkazish belgilab berilgan. Strategiyaning 50-maqsadi ham alohida ahamiyatga molik bo'lib "Bank tizimida islohotlarni jadallashtirish, bank xizmatlari bozori hajmini oshirish va sohada raqobatni rivojlantirish" deb nomlanadi bu maqsad doirasida kamida 3 ta tijorat banklarida islom moliyasi mezon va tartiblarini joriy etish va islom moliyasining qonuniy asoslarini shakllantirish ta'kidlab o'tilgan.

Adabiyotlar sharhi.

Islom moliyasi hozirga kunda juda jaddalik bilan rivojlanib borganligi sababli, hozirgi kunda jahon tadqiqotchilari va olimlari izlanish olib bormoqda jumladan, Andrea Paltrinieri va boshqalar (2023) "Sukuk: adabiyotlarning bibliometrik sharhi" nomli ilmiy ishida 1950-yildan 2018-yilgacha bo'lgan davrda sukuk bo'yicha tadqiqot yo'nalishlari va kelajakdagi tadqiqot savollarini aniqlash uchun 80 ta ilmiy adabiyotlar o'rganilgan va tahlil qilingan. Maqolada islomiy moliya turli sohalarda, jumladan, islom banklari, sukuk, islom fond indeksleri va investitsiya fondlarida sezilarli o'sishga erishilgani alohida ta'kidlangan. Ilmiy asarda 1950-yildan 2018-yilgacha bo'lgan sukuk adabiyotlarini o'rganishga qaratilgan. Tadqiqotda bibliometrik iqtiboslar va birgalikda iqtibos keltirish tahlili kabi turli usullar qo'llanildi. Bundan tashqari, 1992 va 2022-yillar oralig'ida Yevropa davlat boshqaruvlarida barqaror moliyabo'yicha chop etilgan 82 ta maqolaning tizimli adabiyotlar sharhining tahlili taqdim etilgan.

Ezzedine Ghlamallah va boshqalar (2021) "Islom iqtisodiyoti va moliyasi tadqiqotlari mavzulari" asarida islom iqtisodiyoti va moliyasi yuzasidan olib borilayotgan tadqiqotlar chuqur tahlil qilingan va o'rganilgan. Tadqiqotchilar 1979-yildan 2018-yilgacha bo'lgan davr mobaynida chop etilgan 1500 ga yaqin ilmiy ishlarni o'rganib chiqishgan va iqtisodiy, moliyaviy va axloqiy masalalarni qamrab olgan 11 ta mavzu doirasida islom iqtisodiyoti va moliyasi adabiyotini yaxshi ta'riflash mumkinligini tadqiq qilishgan. Shuningdek asarda islom iqtisodiyotining an'anaviy iqtisodiy tizimda mavzuda bo'lmagan o'ziga hosliklari haqida fikr yuritilgan. Jiyanov Uktam Panjiyevich va Norboyeva Maftuna Shavkat qizi (2024) "Yashil sukuk emissiyasi: Malayzoyadan misollar" maqolasida yashil suyuqlar bo'yicha Malayziya bozorini o'rganib o'zini ilmiy xulosalarini berganlar. Yaqubjonov Abdulaziz (2024) "Islomiy qimmatli qog'ozlarga oid ilmiy adabiyotlar" sharhi" maqolasida ko'plab islom moliyasi bo'yicha jahon adabiyotlar tahlilini olib brogan va quydagi takliflarni bergan Olimlarning ilmiy ishlarini o'rgangan holda shuni ham qo'shimcha qilish mumkinki islom banklari ham risklardan holi emas va bu o'z navbatida jahon tajribasining mamlakatimizgakerakli qismlarinigina


qo'llashimiz kerakligini ko'rsatadi. Bu o'z navbatida O'zbekistoniqtisodiyotida tub burilish qayd etishi va rivojlanishning keyingi bosqichiga chiqishga o'zini ta'sirini ko'rsatadi.

Tadqiqot metodologiyasi.

Ushbu maqolani tayorlashda turli ma'lumotlar va yillik mashxur sayit hisobotlradan foydalanildi. Ma'lumotlar islom moliyasi va moliyaviy instrumentlar kabi yo'nalishlarga soslangan. Maqolada olingan ma'lumotlar jahonda islom moliyasini rivojlanishi tahlil qilingan. Olingan malumotlar ishonchi bo'lishi aniq ma'lumotlarda foydalanigan.

Tahlil va natijalar muhokamasi.


Keyingi vaqtlarda islom moliyasiga bo'lgan talab tobora ortib borayotkanligini ko'rishimiz mumkin jumladan islomiy banklar, islomiy sug'urta (takaful), sukuklar, yashil sukuklar, shariatga mos qimmatli qog'ozlar, islom fond indekislari, islom investitsiya fondlari juda tezlik bilan rivojlanib borishi kuzatishimiz mumkin. Bunga misol qilib quyidagi jadval va diagrammalarimizni misol qilib keltirishimiz mumkin. LSEGning 2024 yil islom moliyasi hisobotida keltirilgan malumotlarga quyidgaicha berilgan. Islom moliyasi aktivlari 5 trillion AQSH dollariga yaqinlashdi, islom kapital bozori esa o'sish suratida katta rol o'ynamoqda.



**1-diagramma. Islom moliya aktivlari o'sish suratlari
(2017-2023, Millard AQSh dollar)**

Manba: www.lseg.com


Yuqoridagi diagrammadan ko'rinib turiptiki 2017 yilda 2,786 milliard AQSh dollarini tashkil etkan bo'lsa 2023 yil yakuniga 4,925 milliard AQSh dollarini tashkil qilyatpi, 2028 yilga borip 7,528 AQSh dollarini tashkil qilishi kutilmoqda. Ma'lumotlardan ko'rinib turiptiki islom moliya aktivlari har yili oz bo'lsada o'sish kuzatilgan.



**2- diagramma. Islomiy bank aktivlari o'sish surati
(2017-2023, Millard AQSh Dollori)**

Manba: www.lseg.com

2-diagrammada bizga ko'rsatadiki 2017 yil islom bank aktivlari 2,049 AQSh dollarini tashkil etgan bo'lsa 2023 yil yakuniga kelib 3,569 AQSh dollarini tashkil etyapti.




3- diagramma. Sukuk bozorini o'sish qiymati milliard AQSh dollorda

Manba: www.lseg.com

Yuqridagi diagrammada ko'rip turipmizki sukuklar 2017 yilga 420 AQSh dollorni tashkil etkan bo'lsa 2023 yilni oxiriga kelib 863 milliard AQSh dollarini tashkil etganligini ko'rishimiz mumkin.

4-diagramma bizga ma'lum qilyaptiki islomiy fondlar 2017 yilda 123 milliard AQSh dollarini tashkil etgan bo'lib 2023 yilning yakuniga qadar 254 milliard AQSh dollarini tashkil etyapti.

Yuqoridagi ma'lumotlarni kuzatib va tahlil qilib aytish mumkinki islom moliya yil sayin o'sib bormoqda to'g'ri ayrim yillarda pasayish holatlarini kuzatishimiz mumkin lekin katta darajada pasayish bo'lmagan lekin islom moliyasini umumiy ulishi oladigan bo'lsak yildan yilga oshganini ko'rishimiz mumkin.



4-diagramma. Islomiy fondlarning o'sish surati milliard AQSh dollorda

Manba: www.lseg.com

Xulosa va takliflar.

Yuqoridagi tadqiqot va izlanishlarga tayanib quydagi hulasa keldimki, islom moliyasi va islom moliya instrumentlari shidat bilan rivojlanayotkanligi va moliya bozorini jozibadorligini yana oshirganligini qayt etish kerak. Islom moliyaviy instrumentlari hozirgi kunda barcha mamlakatlar tomonidan tadbiq etilganini hisobga olgan xolda ularni jumladan Malayziya kabi mamlakatlarning tajribasini o'rganish va bizning mamlakatimiz moliya tizmiga tadbiq etilishni taklifini beraman.

Lekin shuni takishlash keraki islomiy moliyaviy instrumentlari risklarda holi degani emas, bu risklarni yaxshilab o'rganib undan so'ngina moliya tizimimizga tadbiq qilishimiz kerak.

Islom moliyasini tadbiq qilish bizga ko'plab imkoniyatlar yaratishi mumkin, misol uchun isinvestitsiya jozibadorligini oshirish ya'ni islom moliya isstitutlaridan qo'shimcha investitsiyalar jalb qilish. Lekin buni amalga oshirish uchun bir qancha oldimzda mavjud kamchiliklarni bartaraf etishimiz lozim misol uchun ayanan suuq bo'yicha tegishli qonun hujjatlariga o'zgartirishlar kiritish kabi masalar turipti.

Yakuni xulosamga to'xtaladigan bo'lsam yuqoridagilarni inobatga olgan islom moliyaviy instrumentlaridan foydalish mamlakat uchun yaxshi foyda beradi.

Adabiyotlar/ Jumepamypa/Reference:

Andrea Paltrinieri et al. (2023). A bibliometric review of sukuk literature. *The international review of economics and finance*, 86, pp. 897-918

Ezzedine Ghlamallah et al. (2021). The topics of Islamic economics and finance research. *The international review of economics and finance*, 75, pp. 45-160.

IFSB.org (2023). The IFSB issued the Thirteenth Edition of its Annual Flagship Publication: The Islamic Financial Services Industry (IFSI) Stability Report 2023. 15.04.2023

Jiyanov Uktam Panjiyevich va Norboyeva Maftuna Shavkat qizi (2024) Yashil sukuk emisyasi: Malayziya misolida.

Yaqubjonov Abdulaziz (2024) ISLOMIY QIMMATLI QOG'OZLARGA OID ILMIY ADABIYOTLAR SHARHI